TIBBIY GEOGRAFIK TADQIQOTLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.

Allanov Qilich Allaqulovich — **Termiz davlat universiteti dotsenti, geografiya fanlari nomzodi.**

Qurbonova Gulshoda Abduraxmanovna — **Termiz davlat universiteti Geografiya ta’lim yo‘nalishi magistranti.**

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiy geografiya sohasidagi tadqiqotlarning shakllanishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlari ilmiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Unda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan yirik ilmiy ekspeditsiyalar va tadqiqotlarga, shuningdek, tibbiy geografiyaning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi va rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan atoqli olimlarning ilmiy faoliyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Ular tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy nazariyalar, konseptual yondashuvlar, taklif va tavsiyalar, xususan, kasalliklarning hududiy tarqalish qonuniyatlari hamda ularning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan ilmiy qarashlar tahlil qilingan. Olingan natijalar tibbiy geografiyaning tarixiy-ilmiy asoslarini yanada chuqurroq anglash, shuningdek, kasalliklarning hududiy tarqalish qonuniyatlari va aholi salomatligi bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishdagi uning ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar. Tibbiy geografik tadqiqotlar, olimlar, ekspeditsiyalar, kasalliklar, nazariyalar, infeksion kasalliklar, epidemiologik, o’choq oblasti, hududlar.

FORMATION AND DEVELOPMENT OF MEDICAL GEOGRAPHY RESEARCH.

Allanov Qilich Allaqulovich — Associate Professor, Termez State University, Candidate of Geographical Sciences.

Qurbonova Gulshoda Abduraxmanovna — Master’s Student in Geography, Termez State University.

Abstract. This article examines the historical formation and development of medical geography research from a scientific perspective. Particular attention is paid to major scientific expeditions and research conducted in the field, as well as to the contributions of prominent scholars who played a significant role in the development of medical geography. The study also considers the theories, scientific approaches, proposals, and recommendations developed by these scholars concerning the geographical distribution of diseases and their relationship with environmental and territorial factors. The findings contribute to a better understanding of the historical and scientific foundations of medical geography research and its role in studying the spatial patterns of diseases and public health.

Keywords: Medical geography, medical-geographical research, scientific expeditions, disease distribution, infectious diseases, epidemiology, disease foci, geographical areas, territorial factors.

Kirish. Inson salomatligi jamiyat taraqqiyotining har bir davri uchun kechiktirib bo'lmaydigan muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Zero har qanday mamlakatning rivojlanganlik holati mazkur hududda yashovchi aholining salomatlik va savodxonlik darajasi bilan belgilanadi.Aynan shu ikki ko'rsatkich davlatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va inson salohiyatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ifodalaydi. Shu sababli ham ushbu mavzu ustida tadqiqot ishlarini olib borish , bu borada taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Maqolada tibbiy geografik tadqiqotlar borasida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar, ularning ishlari haqida ma'lumot berilgan.

Asosiy qism. Hozirgi turli xil keskinlikdagi geoekologik vaziyatlar vujudga kelgan bir davrda tibbiy geografiya va iqtisodiy-ijtimoiy geografiya fanlarining inson salomatligini saqlashdagi ahamiyati hech kimda hech qanday shubha tug‘dirmaydi. XIX asrning ikkinchi yarmida geografiya bilan tibbiyot o‘rtasida predmetlararo mustaqil fan tarmog‘i sifatida tibbiy geografiya vujudga kelib, asta-sekin shakllana bordi. Bu fanning asosiy maqsadi va vazifasi har qaysi hududning tabiiy va sotsial-iqtisodiy sharoitini aholining salomatlik holatiga ta'sirini o‘rganish va inson kasalliklarining kelib chiqish sabablarini va geografik taraqalishini aniqlashdan

iboratdir. Bundan tashqari tabiati tubdan o‘zlashtirilgan hududlarda, tog‘-kon sanoati rivojlanayotgan rayonlarda, magistral kanallar va suv omborlari qurilayotgan cho‘llarda kutilmagan holatlarda turli xil kasalliklarni paydo bo‘lishini tibbiy geografik prognozlashtirishda mazkur fanning amaliy ahamiyati beqiyosdir.

XX asrning 30-40 yillariga kelib tibbiy geografiyaning keng ko‘lamda rivojlanishi uchun shart-sharoitlar vujudga keldi. Mamlakatning xalq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish maqsadida sobiq SSSR hududidagi ayrim regionlarning, xususan markazdan uzoq bo‘lgan joylarning ishlab chiqaruvchi kuchlarini har tomonlama tadqiq qilish va ularni o‘zlashtirish maqsadida kompleks tibbiy ekspeditsiyalar tashkil etildi [1]. Ana shunday yirik ekspeditsiyalardan biri bo‘lgan zoologik-parazitologik ekspeditsiyaga rahbarlik qilgan akademik YE.N.Pavlovskiy O‘rta Osiyoda, Uzoq Sharqda va boshqa o‘lkalarda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish natijasida ko‘plab materiallar to‘pladi. To‘plangan faktik materiallarning asosiy qismi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni aholi salomatligi holatiga, inson kasalliklarining kelib chiqishi va geografik tarqalishiga taalluqli bo‘lgan.

Ye.N.Pavlovskiy 1939 yilda barcha to‘plangan faktik materiallarni nazariy umumlashtirish natijasida inson kasalliklarini keltirib chiqaruvchi tabiiy o‘choqlar va landshaft epidemiologiyasi to‘g‘risidagi ta’limotni yaratdi. Bu yo‘nalishdagi ta’limot mutaxassislar tomonidan keng e’tirof etildi. Oqibatda geografiya bilan tibbiyotda erishilgan yutuqlar tibbiy geografiya fanining shakllanishiga va rivojlanishiga keng imkoniyat ochib berdi. Bu borada tibbiy geografiyaning shakllanishi va barqaror rivoj topishida YE.N.Pavlovskiy, D.K.Zabolotniy, A.P.Markovin, A.A.Shoshin, YE.I.Ignatyev, A.G.Voronov va boshqalarning ilmiy asarlari muhim rol o‘ynadi [3].

1943 yildan boshlab sobiq SSSR Harbiy tibbiy akademiyasining bir guruh ilmiy hodimlari A.A.Shoshin rahbarligida uzoq yillar davomida harbiy tibbiy geografiya yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, tibbiy geografiyaning va uning nazariyasini intensiv ravishda rivojlanib borishiga o‘zlarining katta hissasini qo‘shdilar. Bunga qo‘riq va bo‘z yerlarning o‘zlashtirilishi, sug‘orma dehqonchilikning rivojlantirilishi, yangi aholi manzilgohlarini, shaharlarni

va sanoat markazlarini barpo etilishi, shimoliy rayonlarni o‘zlashtirilishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi [4].

Ye.N.Pavlovskiy va A.A.Shoshinning tashabbusi bilan 1955 yilda sobiq ittifoq Geografiya jamiyati prezidiumi qoshida Tibbiy geografiya komissiyasi tashkil etildi. 1963 yilga kelib bu komissiya Tibbiy geografiya bo‘limiga aylandi. 1959 yilda sobiq ittifoq Fanlar Akademiyasining Sibir bo‘limidagi Geografiya instituti tarkibida maxsus tibbiy geografiya sektori, Tinch okean Geografiya institutida tibbiy geografik laboratoriya tashkil etildi. Bular Sibir va Uzoq Sharq o‘lkalarini tibbiy geografik tekshirish, ilmiy xulosalarni va turli yo‘nalishdagi ilmiy yondashishlarni tajribada sinab ko‘rish, tadqiqot metodlarini ishlab chiqish va yaratish uchun qulay imkoniyatlar ochib berdi. Shu davrda tibbiy geografiyaning yanada rivojlanishiga Ye.I.Ignatyev tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotda qo‘llash uchun taklif etilgan kasalliklarning tabiiy shart-sharoiti konsepsiyasi ta’rifi muhim rol o‘ynadi [5].

Tibbiy geografik tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy jamoa Rossiya Fanlar Akademiyasining Geografiya institutida ham shakllanib, keng miqyosda ilmiy tekshirish ishlarini olib bordilar.

O‘tgan asrning 60-yillarida Moskva davlat universitetining geografiya fakultetidagi biogeografiya kafedrasida A.G.Voronov rahbarligida tibbiy geografik yo‘nalishdagi ilmiy maktab vujudga keldi. Ularning sa’y-harakati bilan hozirgi tibbiy geografik tadqiqotlarning metodologik asoslari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Shuni ta’kidlash joizki, A.G.Voronov birinchilar qatorida tibbiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalarini ishlab chiqdi, geografik patologiya sohasida ish olib bordi, inson kasalliklarining xarakterli xususiyatlarini atrof-muhitga bog‘lab tasnifladi, tibbiy landshaftshunoslikning asosiy holatlariga ta’rif berdi. A.G.Voronovning barcha tadqiqot ishlarida geografik muhitning inson salomatligiga ta’sirini o‘rganish muammosi alohida o‘rin egallaydi [8].

XX asrning 60-yillariga kelib tibbiy geografiya doirasida tibbiy landshaftshunoslik yo‘nalishi paydo bo‘lib, asta-sekin fan sifatida rivoj topa bordi. Ma’lumki, insonlardagi aksariyat og‘ir kasalliklarning paydo bo‘lishi, birinchidan landshaftning mahalliy geokimyoviy xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan

uning hududida kasallik qo‘zg‘atuvchi yoki tarqatuvchi manbalarning ishtirok etishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tibbiy landshaftshunoslik – tibbiy geografiyaning bir tarmog‘i bo‘lib, uning tadqiq qilish obyekti bo‘lgan turli xil taksonomik rangdagi landshaft komplekslarini – zona, o‘lka va rayonlardan tortib, to joy tipi, urochisha va fatsiyalarni epidemiologik nuqtai nazardan o‘rganadi.

Tibbiy geografiya to‘g‘risidagi ta’limotni va uning nazariyasini mukammal ravishda rivojlanib borishiga kasalliklarning tabiiy o‘choqlarini tasniflash va tiplashtirish masalalariga, tibbiy geografik rayonlashtirish prinsiplari va metodlarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan ilmiy asarlarning yaratilishi, regional taksonomik birliklar sistemasini asoslab berilishi katta rol o‘ynaydi. Bunga misol qilib YE.L.Rayx, YE.S.Feldman, V.V.Kucheruk, Y.A.Dubrovskiy, S.M.Malxazova, V.M.Neronov, A.G.Voronov, A.A.Keller, B.B.Proxorov, S.A.Kurolap va boshqalarning ishlarini ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

V.V.Kucheruk (1972) inson kasalliklari turlarini ayrim tabiiy o‘choqlarining morfologiyasini tadqiq qilib, ularni tiplashtirish va o‘choqli hududlarni tibbiy geografik rayonlashtirish ishlarini amalga oshirdi. U tibbiy geografik rayonlashtirishda quyidagi taksonomik birliklar sistemasidan foydalangan: o‘choq-o‘choqlar guruhi-o‘choqlar sinfi-o‘choqli region-o‘choqli regionlar guruhi-qo‘zg‘atuvchi areal.

Y.A.Dubrovskiy (1978) O‘rta Osiyo hududi doirasida teri leyshmanioz kasalligini va uning epidemiologik xususiyatlarini kompleks o‘rganib, bu kasallikning tabiiy o‘choqlarini tipologik tasniflash ishlarini olib bordi. Muallif ayrim tabiiy o‘choqlar guruhini o‘xshashlik darajasini baholashda asosiy mezon sifatida leyshmanioz kasalligini tarqatuvchi fauna turlaridan, epizootiy xarakteridan va hududning epidemik jahatdan qay darajada xavfli ekanligidan foydalangan.

Bundan tashqari Y.A.Dubrovskiy (1978) zoonoz teri leyshmanioz areali doirasida alohida uchta o‘choq regionlari guruhini ajratadi – Turon, Eron va Falastin. Shundan Turon pasttekisligi guruhi 12 ta o‘choqli regionlarga va 37 ta tabiiy o‘choqlar guruhiga bo‘lingan.

A.A.Keller (1993) infeksion (yuqumli) kasalliklarning geografik tarqalishini o‘rganish va odamlarga yuqish xavf-xatarlik darajasini tahlil qilish natijalariga asoslanib, materiklarni kompleks epidemiologik – geografik rayonlashtirishni taklif etgan va epidemiologik geografiyaning quyidagi asosiy qonuniyatlarini aniqlagan: 1) endemik jarayonning makonda notekis tarqalganligi; 2) epidemiologik hodisalarning makonda siyrakligi va zichligi; 3) epidemik jarayonlar dinamikasida davriylik; 4) epidemik jarayon elementlarining geografik sharoitlar majmuasiga muvofiqligi; 5) epidemik jarayonning namoyon bo‘lishidagi zonal va azonal shart-sharoitlar.

S.M.Malxazova va V.M.Neronovlar (1983, 1991) o‘choqli hududlarni tibbiy geografik rayonlashtirish masalasi bilan shug‘ullanib, nozoareallarni o‘choqli oblastlarga, o‘choqli provinsiyalarga, o‘choqli rayonlarga va o‘choqli uchastkalarga bo‘lishgan. Ajratilgan regional birliklarning tabiiy xususiyatlariga, ularning epizootologik va epidemiologik nuqtai nazardan o‘rganilganlik darajasiga tavsif berilgan.

S.M.Malxazova va V.M.Neronov (1983) tibbiy geografik rayonlashtirishda O‘rta dengiz havzasi va O‘rta Osiyo tog‘-tekislik o‘lkalarini mustaqil o‘choq oblasti deb qarab, uni 25 ta o‘choq rayonlarga bo‘lgan va landshaft-epidemiologik tavsif bergan. Shulardan 4 tasi O‘rta Osiyo tog‘ va tekislik o‘lkalariga to‘g‘ri keladi. Bular Janubi-Sharqiy Qoraqum vodiy-tekislik, Qoraqum-Qizilqum tekislik-vodiy, Tyanshan tog‘-vodiy va Pomir-Oloy tog‘ vodiy o‘choq rayonlaridir [5].

Shuni e’tirof etish joizki, tibbiyot geografiyasiga oid bilimlar O‘rta Osiyo hududida ham qadimdan vatandosh allomalarimiz tomonidan o‘rganilgan va tabiiy sharoitga bog‘liq ravishda tahlil qilingan. Jumladan, tibbiyot geografiyasiga oid ma’lumotlar Abu Ali Ibn Sino asarlaridan keng o‘rin olgan. Ayniqsa kasalliklarning kelib chiqish sabablari tabiiy geografik sharoit bilan, joylarning iqlim xususiyatlari, relyefi, suvlari va havosi bilan, xususan yil fasllari bilan uzviy bog‘liqligi allomaning «Tib qonunlari» asarida batafsil yoritilgan [7]. Tibbiy geografik bilimlarga taalluqli bo‘lgan ma’lumotlar Abu Bakr Ar-Roziy asarlarida ham uchraydi.

Xulosa. Yer sharining turli mintaqalarida, tog’da va tekislik landshaftlarida, sahro va o’rmonda, shahro va o’rmonda, shahar va qishloq joylarida, iqtisodiy

jihatdan turli rivojlanish darajasiga ega bo'lgan mamlakat va mintaqalarda nozogeografik vaziyat turlichadir. Bunday nozogeografik vaziyatning hududiy tafovutlarini aniqlash va baholashni ilmiy jihatdan tadqiq qilish tibbiy geografik tadqiqotlarning asosiy vazifasidir.

Kasalliklarning hududiy jihatlari, ularni vujudga keltiruvchi shart-sharoit va omillarni tibbiy geografik jihatdan o'rganish, muayyan hududning istiqboldagi holatini nozogeografik vaziyat nuqtai nazaridan bashorat qilish imkonini beradi. Shu jihatdan tibbiy geografik tadqiqotlar borasida tadqiqot ishlarini olib borgan olimlar ilmiy ishlarni o'rganish va bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish har bir mamalakatda nozogeografik vaziyatni yaxshilashda muhim omil hisoblanadi, bu esa mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 27 dekabrdagi "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni. https://gov.uz/oz/sanitation/sections/view/65339

2. BMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturi// https://sdgs.un.org/2030agenda?utm_source=chatgpt.com

3. Abdulqosimov A.A., Ravshanov A.X. Tibbiy geografiya to'g'risidagi ta'limotning shakllanishi va rivojlanishi. //Geografiya fanining dolzarb nazariy va amaliy masalalari. – Toshkent, 2008.

4. Abulqosimov A., Ravshanov A.X. Tibbiy geografik va tibbiy geoekologik tadkikotlarning nazariy asoslari. // Fan chorraxalari. Geografiya. –Samarkand, 2013.

5. Komilova N.Q Tibbiyot geografiyasining nazariy va amaliy masalalari. (monografiya). Toshkent, 2016.

6. Komilova N.Q, Soliyev A.S Tibbiyot geografiyasi. "Istiqlol", Toshkent, 2005.

7. Abu Ali ibn Sino Tib qonunlari,J.1. Toshkent, 1994.

8. Voronov A.G. Meditsinskaya geografiya . Moskva, "Nauka", 1981.